

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD 03/30.12.2019.B.72.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

HAMROQULOVA NARGIZA KOMIL QIZI

**BUXORO VOHASI SHO‘RLANGAN TUPROQLAR SHAROITIDA SOYA
NAVLARI SUV ALMASHINUV FIZIOLOGIYASI VA MAHSULDORLIK
DARAJASINI BAHOLASH**

03.00.07 – O‘simliklar fiziologiyasi va biokimyosi

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Hamroqulova Nargiza Komil qizi

Buxoro vohasi sho‘rlangan tuproqlar sharoitida soya navlari suv almashinuv fiziologiyasi va mahsuldorlik darajasini baholash.....3

Хамрокулова Наргиза Комил қизи

Физиология водного обмена и оценка уровня продуктивности сортов сои в условиях засоленных почв Бухарского оазиса21

Khamrokulova Nargiza Komil kizi

Physiology of water metabolism and evaluation of soybean varieties productivity level under saline soil conditions in Bukhara oasis41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....45

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD 03/30.12.2019.B.72.02 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

HAMROQULOVA NARGIZA KOMIL QIZI

**BUXORO VOHASI SHO‘RLANGAN TUPROQLAR SHAROITIDA
SOYA NAVLARI SUV ALMASHINUV FIZIOLOGIYASI VA
MAHSULDORLIK DARAJASINI BAHOLASH**

03.00.07 – O‘simliklar fiziologiyasi va biokimyosi

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/B746 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Buxoro davlat universiteti veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Norboyeva Umida Toshtemirovna
biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xalilov Nasriddin
qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor

Jumayev Farhod Hojiqurbonovich
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 03/30.12.2019.B.72.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «____» _____ kuni soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 200117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (+99865) 221-29-14, faks (+99865) 221-26-12, e-mail: bsu_info@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 200117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Buxoro davlat universiteti majlislar zali Tel.: (+99865) 221-29-14, faks (+99865) 221-26-12.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «____» _____ kuni tarqatildi.

(2025 yil «____» _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

X.T. Artikova

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi,
biologiya fanlari doktori., professor

A.M. Qobilov

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash kotibi,
biologiya fanlari falsafa doktori., dotsent

A.E. Xolliyev

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, biologiya fanlari doktori., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda global iqlim o'zgarishlari sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va agrar sohani rivojlantirish, tuproq-iqlim sharoitga mos, stressga chidamli navlarni tanlash hamda hosil sifatga bo'lgan bo'lgan talab ortib bormoqda. Shunga ko'ra, suv va yer resurslaridan samara foydalanish, tuproq unumdorligi oshirish, turli darajada sho'rlangan tuproqlarga chiqamli, oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirishga yo'naltirilgan qishloq xo'jaligi ekinlarining navlarini tanlash va ularni hosil sifatini yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi. Sho'rlanish, qurg'oqchilik hamda tuproq unumdorligining pasayishini oldini olish, agrotexnik me'yorlarni sihlab chiqish stress omillarga chidamli qishloq xo'jaligi ekinlarining navlarini yaratish kabi ilmiy tadqiqotlar bugungi kunning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Jahonda global iqlim o'zgarishi natijasida kuzatilayotgan har xil tip va darajada sho'rlangan tuproqlarda stress omillariga chidamli soyaning tur, navlarini tanlash va hosildorligini oshirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, o'simliklar fiziologiyasi va ekologiyasiga asoslangan moslashish tiplari, metabolitik jarayonlar, osmotik va oksidlanish stress ta'sirini kamaytirish mexanizmlarini o'rganish, genotipik va fenotipik imkoniyatlarini oshirish, mahsuldorlik salohiyatlari hamda fiziologik jarayonlarning faollashish mexanizmiga ijobiy ta'sir etuvchi himoya hamda moslashuvchanlik samaradorligini oshirishga katta e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimizning turli tuproq va iqlim sharoitlarida soya o'simligini yetishtirish bo'yicha ekofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda agrotexnik tadbirlarni takomillashtirish hamda ko'plab fiziologik, ontogenetik, molekular va agrotexnik yondashuvlar orqali aholini sifatli moy va oqsil bilan ta'minlash, sho'rlangan tuproqlar sharoitida stress omillarga moslashgan qishloq xo'jaligi ekinlari navlarini aniqlash, yaratish va amaliyotga joriy etish orqali muayyan natijalarga erishilgan. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ "... ilmiy tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish" bo'yicha alohida vazifalar belgilangan. Shunga ko'ra, mamlakatimizda ozuqabop ekinlarning serhosil navlarini ko'paytirish, turli tuproq-iqlim sharoitlariga moslashgan qishloq xo'jalik ekinlarining yangi navlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish orqali tuproq unumdorligini oshirishda amalga oshirilayotgan tadqiqot ishlarini yanada kengaytirish vazifalari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-fevraldagi 105-son "Respublikada soya yetishtirish hajmlarini yanada ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son, "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi"gi PF-60-son Qarori

to'g'risida"gi Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xorijda soya o'simligining ekologik va fiziologik xususiyatlari hamda mahsuldorligi bo'yicha keng ko'lamli tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, bu yo'nalishda xorijlik olimlar tomonidan soyaning ayrim fiziologik xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar M.S.A. Khan, M.A. Karim, M.M. Haque, M.M. Islam, A.J.M.S. Karim va M.A.K. Mian (2016), S.N. Mahfuza, A.F.M.S. Ahsan, I.M. Ahmed, F. Ahmed, A.H.M.M. Rahman Talukder, M.N. Islam (2022), P. Debaeke, A. Forslund, H. Guyomard, B. Schmitt, A. Tibi (2022) suv almashinuv ko'rsatkichlari va fermentlar faolligi A.A. Mahmud, S. Parveen, M.M.Bazzaz, M.A.Hossain (2015), M.A. Mannan, M.A.Karim, M.M. Haque, Q.A.Khaliq, H.Higuchi E. Nawata (2013), L.Benedetti, A.Scherner, C.C. Cuchiara, Í.L.Moraes, A. L.Avila, S.Deuner (2020) sho'rlangan sharoitlarda hosil salmog'ining shakllanish xususiyatlari K. Ghassemi-Golezani, S.Farhangi-Abriz (2018), Ghassemi-Golezani K, Taifeh-Noori M, Oustan S, Moghaddam M. S. Seyyed-Rahmani (2010), A.U. Parveen, J. Akhtar, S.M Basra, (2016), A-U-HM, Parveen T. Aziz, O.Aziz, L.Maqsood (2020) va boshqalarning ilmiy manbalarida keltirilgan.

MDH mamlakatlarida soya o'simligining biologik, ekologik va mahsuldorlik xususiyatlari hamda qo'llaniladigan agrotexnik tadbirlar, oziq ta'minoti masalalari G.T. Balakay, O. S. Bezuglova (2003), V.F. Baranov (2007, 2009), M.V. Tolmachev (2009), V.T. Sinegovskaya (2010) suv ta'minoti va hosildorlik xususiyatlari V.M. Penchukov (2012), A. G. Jixarev (2009), O.Yu. Renyova (2011) va boshqalarning tadqiqot ishlarida keltirilgan.

Respublikamizning turli tuproq va iqlim sharoitlarida soya navlarining agrotexnikasi, o'sishi va rivojlanishi, morfobiologik xususiyatlari, suv va oziq ta'minoti hamda mahsuldorlik ko'rsatkichlari bo'yicha D. R. Annamuratova (2010), X.S. Isaev va boshq. (2019, 2020, 2021), O.Sattorov (2019), V.N.Muxitdinov (2020), X.M.Raximova (2021), M.Sh. Jaynaqov (2021), N.F. Mirzaev (2022), D.V.Solieva (2022), O'.X. Yuldashov (2023), M.A.Xolikova (2023) va boshqalar tomonidan ilmiy izlanish ishlari olib borilgan. Biroq, soya navlarining har xil darajada sho'rlangan o'tloqi-allyuvial tuproqlar sharoitida ekofiziologiyasi va suv almashinuvi asosida sho'rga chidamlilik hamda moslashish hamda himoya xususiyatlarining fiziologik asoslarini o'rganish bo'yicha tadqiqot ishlari amalga oshirilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining № 3120

“O‘simliklarning stressga chidamliligining ekofiziologik mexanizmlarini o‘rganish” hamda № 25 “Oziq-ovqat o‘simliklarini yetishtirishning ekologik va fiziologik xususiyatlari hamda mahsuldorligini asoslash” (2020-2025) mavzusidagi ilmiy ishlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Buxoro vohasining sho‘rlanmagan, o‘rtacha va o‘rtacha-kuchli darajada sho‘rlangan tuproq-iqlim sharoitida (*Glicine hispida Maxim*) mahalliy va xorijiy soya navlari suv almashinuvning fiziologik, biokimyoviy va mahsuldorlik darajasini ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sho‘rlanmagan, o‘rtacha va o‘rtacha-kuchli sho‘rlangan tuproqlar sharoitida navlar suv almashinuvining fiziologik xususiyatlari hamda suv almashinuv jadalligiga bog‘liq holda mahsuldorlik darajasini baholash;

sho‘rlanmagan, o‘rtacha va o‘rtacha-kuchli sho‘rlangan tuproqlar sharoitida turli soya navlarining suv almashinuvi jarayoni bilan bevosita bog‘liq ko‘rsatkichlar transpiratsiya jadalligi, barglardagi umumiy suv miqdori, barglarning kunduzgi va qoldiq suv tanqisligi, hujayralarning turgotsentlik darajasi, barg to‘qimalarining osmotik bosimi, hujayra shirasining quyuqlik darajasi, protoplazmaning qovushqoqlik darajasi va barglardagi bog‘langan suv miqdorini asoslash;

sho‘rlanmagan, o‘rtacha va o‘rtacha-kuchli sho‘rlangan tuproqlar sharoitida turli soya navlarining ayrim fiziologik va biokimyoviy ko‘rsatkichlari- albuminlar va xlorofill pigmentlari miqdori, fotosintez va nafas olish jadalligini aniqlash;

sho‘rlanmagan, o‘rtacha va o‘rtacha-kuchli sho‘rlanish darajalarining don tarkibidagi oqsil va moy miqdoriga ta‘sirini baholash;

sho‘rlanmagan, o‘rtacha va o‘rtacha-kuchli sho‘rlangan tuproqlar sharoitida turli soya navlarining mahsuldorlik va sho‘rga chidamlilik darajasini baholash maqsadida navlarning o‘sish jadalligi, barg sathining kengayishi, fotosintez so‘f mahsuldorligi va hosil salmog‘i va 1000 ta don vaznini navlar kesimida qiyosiy o‘rganish.

Tadqiqotning ob‘ekti sifatida soya (*Glicine hispida Maxim*) ning mahalliy Oyjamol, Nafis va xorijiy Sloviya (Rossiya), Viktoriya (Serbiya), Vestochka (Rossiya) navlari olingan.

Tadqiqotning predmetini istiqbolli mahalliy va xorijiy soya navlarining suv almashinuvi, fiziologiyasi, mahsuldorlik xususiyatlari, hosildorlik darajalari, sho‘r stressiga chidamli va mahsuldorligi yuqori bo‘lgan navlarni tanlash tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida laboratoriya va dala tajribalari, zamonaviy va klassik, biometrik, morfologik, fenologik, fiziologik, biokimyoviy, kuzatish va statistik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Buxoro viloyatining sho‘rlanmagan, o‘rtacha va o‘rtacha-kuchli sho‘rlangan tuproqlar sharoitida soya navlari suv almashinuvining fiziologik xususiyatlari hamda suv almashinuv jadalligiga bog‘liq holda mahsuldorlik darajasi navlar kesimida baholangan;

sho'rlanmagan, o'rtacha va o'rtacha-kuchli sho'rlangan tuproqlar sharoitida turli soya navlarining suv almashinuvi jarayoni bilan bevosita bog'liq ko'rsatkichlar - transpiratsiya jadalligi, barglardagi umumiy suv miqdori, barglarning kunduzgi va qoldiq suv tanqisligi, hujayralarning turgotsentlik darajasi, barg to'qimalarining osmotik bosimi, hujayra shirasining quyuqlik va protoplazmaning qovushqoqlik darajasi, bog'langan suv miqdori asoslangan;

turli soya navlarining ayrim fiziologik va biokimyoviy ko'rsatkichlari-albuminlar va xlorofill pigmentlari miqdori, fotosintez va nafas olish jadalligini sho'rlanmagan, o'rtacha va o'rtacha-kuchli sho'rlangan tuproqlar sharoitida aniqlangan;

sho'rlanmagan, o'rtacha va o'rtacha-kuchli sho'rlangan tuproqlar sharoitida - turli soya navlarining mahsuldorlik va sho'rga chidamlilik darajasini baholash maqsadida navlarning o'sish jadalligi, barg sathining kengayishi, fotosintez so'f mahsuldorligi va hosil salmog'i navlar kesimida qiyosiy ochib berilgan;

sho'r stressiga chidamlilik darajasi past bo'lgan Nafis va Vestochka navlarini sho'rlanmagan yoki kuchsiz sho'rlangan, chidamlilik darajasi yuqori bo'lgan Oyjamol va Sloviya navlarini esa sho'rlanmagan, kuchsiz o'rtacha-kuchli darajada sho'rlangan hududlarga ekish orqali yuqori hosil olish mumkinligi isbotlangan;

sho'rlanmagan hamda o'rtacha va o'rtacha- kuchli darajada sho'rlangan tuproqlar sharoitida soyaning mahalliy va xorijiy navlarini yetishtirish hamda agrotexnologik imkoniyatlarini oshirish maqsadida fiziologik va biokimyoviy chidamlilik asosida navlarga sho'r stressining ta'sir darajalari asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Buxoro viloyati sharoitida mahalliy va xorijiy soya navlarining tuproqdagi sho'r stressiga chidamlilik darajasini o'rganish orqali ularni mos hududlarga joylashtirish va yuqori hosildorlikni ta'minlash xususiyatlari asoslangan;

soya navlari kesimida yuqori don hosili olish va mahsuldorlikni oshirishda Buxoro viloyatining har xil darajada sho'rlangan tuproq-iqlim sharoitiga mos hamda moslashish va mahsuldorlik darajasi yuqori bo'lgan navlarni ekish uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo'llanilgan laboratoriya va dala tajribalaridan olingan nazariy hamda amaliy natijalarning mahalliy va xorijiy tajribalar bilan qiyoslanganligi, natijalar respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilinganligi hamda dissertatsiya ishi natijalari O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan e'tirof etilgan ilmiy jurnallarda chop etilganligi, tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati turli soya navlarining Buxoro vohasining har xil darajada sho'rlangan tuproqlar sharoitida soya navlarining fiziologik-biokimyoviy ko'rsatkichlari va hosildorlik xususiyatlari tajriba-sinovdan o'tkazilib, shu sharoitda soyaning stressga chidamlilik darajalari navlar kesimida baholangan va amalga oshirilgan tadqiqotlar asosida noqulay ekologik omillar, ya'ni sho'r

stressiga chidamlilik darajasi yuqori bo'lgan Oyjamol va Sloviya navlarining hosildorlik darajasi boshqa navlarga nisbatan o'rtacha, o'rtacha- kuchli darajada sho'rlangan variantlarda moslashish va chidamlilik darajasining oshishi hisobiga hosil salmog'ining 15-20 foizga, chidamlilik darajasi past bo'lgan Nafis, Viktoriya va Vestochka navlarini sho'rlanmagan yoki kuchsiz sho'rlangan hududlarga ekish hisobiga hosil salmog'ini 5-10 foizga oshirishga erishilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tuproq sho'rlanishi ta'sirida soya navlarida o'rganilgan suv almashinuvining fiziologik va mahsuldorlik ko'rsatkichlari qiymatining navlar kesimida har xil darajada o'zgarishi sho'rlanish darajasi va navlarning muhitga moslashish xususiyatlariga bog'liqligi baholangan hamda o'rtacha va o'rtacha-kuchli darajada sho'rlangan tuproqlar sharoitida soyaning mahalliy va xorijiy navlarini yetishtirish agrotexnologiyalarini takomillashtirishga va sho'rga chidamli navlardan seleksiya jarayoni uchun boshlang'ich material sifatida ham foydalanishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Buxoro vohasi sho'rlangan tuproqlar sharoitida soya navlari suv almashinuv fiziologiyasi va mahsuldorlik darajasini baholash” bo'yicha olingan natijalar asosida:

sho'rlanmagan, o'rtacha va kuchli darajada sho'rlangan tuproq-iqlim sharoitida (*Glicine hispida Maxim*) mahalliy va xorijiy soya navlari suv almashinuvining fiziologik, biokimyoviy va mahsuldorlik darajasini asoslash bo'yicha tavsiyalar Jondor tumani “Mashhura-Munojot” fermer xo'jaligida amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024 yil 12 noyabrdagi 05/06-02-976- son ma'lumotnomasi). Natijada sho'r stressiga chidamlilik va moslashish darajasi yuqori bo'lgan Oyjamol va Sloviya navlari hosil salmog'ini boshqa navlarga nisbatan 15-20 foizga oshirish imkonini bergan;

sho'r stressiga chidamlilik darajasi past bo'lgan “Nafis” va “Vestochka” navlarini sho'rlanmagan yoki o'rtacha sho'rlangan tuproqlarda, chidamlilik darajasi yuqori bo'lgan “Oyjamol” va “Sloviya” navlarini esa o'rtacha va kuchli darajada sho'rlangan hududlarga ekish Jondor o'rmon Agroservis fermer xo'jaligi amaliyotiga joriy qilingan. (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2024 yil 12 noyabrdagi 05/06-02-976-son ma'lumotnomasi). Natijada, stressga chidamlilik darajasi past bo'lgan Nafis, Viktoriya va Vestochka navlarini sho'rlanmagan yoki o'rtacha sho'rlangan hududlarga ekish hisobiga hosil salmog'ini 5-10 foizga oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan, 4 ta xalqaro, 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ishlar nashr etilgan bo'lib, shulardan, O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“O'simliklarga tuproq sho'rlanishining ta'siri”** deb nomlangan birinchi bobida tanlangan mavzu bo'yicha adabiyotlar sharhi bayon etilgan. Ayniqsa, soyaning fiziologik xususiyatlariga stress omillar ta'siri va soyaning o'sish va rivojlanishiga abiotik omillar ta'siri bo'yicha xorijiy davlatlar, MDH va mamlakatimiz olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, mavzu o'rganilishining hozirgi ahvoli, o'simliklarga stress omillar ta'siri masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar tizimlashtirilgan va nazariy jihatdan tahlil qilingan. O'tkazilgan tadqiqotlarning hozirgi holati adabiyot manbalari kesimida solishtirma yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot ob'ektlari, uslublari hamda tuproq va iqlim sharoitlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot ob'ektlari, tajribalarni o'tkazish joyi, tuproq va iqlim sharoitlari, tadqiqotlarni amalga oshirish bo'yicha qo'llanilgan uslublar bayoni keltirilgan.

Laboratoriya tajribalari Buxoro davlat universitetining Ekologik fiziologiya va o'simliklar fiziologiyasi laboratoriyasida, kichik dala tajribalari BuxDU o'quv-tajriba maydonlarida hamda Buxoro viloyati “Jondor o'rmon agroservis” va “Mashhura Munojot” fermer xo'jaligi maydonlarida amalga oshirilgan.

Transpiratsiya jadalligi torzion VT-500 (Rossiya) tarozida tortish usuli bilan aniqlandi. Barglar tarkibidagi umumiy suv miqdori termostat usuli bilan, hujayra shirasining quyuqlik darajasi RUO Shui 2GHS-L Digital Refraktometr (Yaponiya) asbobi yordamida tushki paytlarda aniqlandi. Barglardagi kunduzgi va qoldiq suv tanqisligi I.A. Grigoryuk va boshq., (2003), protoplazma qovushqoqligi va osmotik bosimi plazmolitik, albuminlar miqdori hajmiy usul bilan aniqlandi. Umumiy xlorofillar miqdori esa Minolta SPAD-502 (SPAD-Soil Plant Analysis Development) (Yaponiya) xlorofillmetr asbobida aniqlandi. Fotosintez jadalligi yarim barg usuli, barg hujayralarining turgorlik darajasi turgoromer (TN-10-60TS) (Moldaviya) asbobi yordamida hisobga olindi. Barg sathining kengayishi kesmalar va fotosintez sof mahsuldorligi A.A.Nichiporovich va boshq., (1961) usuli bilan hisobga olib borilgan. Ma'lumotlarni statistik qayta ishlash MS Excel 2003 va Sigma Stat amaliy kompyuter programmalari yordamida amalga oshirildi.

Dissertatsiyaning **“Soya navlarining suv almashinuv darajasiga sho'rlanish ta'siri”** deb nomlangan uchinchi bobida sho'r stressi ta'sirida

transpiratsiya jadalligi, barglardagi umumiy suv miqdori barglarning kunduzgi va qoldiq suv tanqisligi, hujayralarning turgotsentlik darajasi, barg to‘qimalarining osmotik bosimi, hujayra shirasining quyuplik va protoplazmaning qovushqoqlik darajasi, barglardagi bog‘langan suv miqdori hamda mazkur bob bo‘yicha xulosalar keltirilgan.

Tajribalar davomida olingan natijalar bo‘yicha soya navlarining gullash bosqichidagi suv almashinuv fiziologiyasini xarakterlaydigan ko‘rsatkichlar navlar kesimida solishtirma tahlil qilindi. Keltirilgan ma‘lumotlarga qaraganda, turli xil sho‘rlangan tuproqlar sharoitida transpiratsiya jadalligi, umumiy suv miqdori, kunduzgi suv tanqisligi, hujayralarning turgotsentlik darajasi va to‘qimalarining osmotik bosimi kabi ko‘rsatkichlar qiymatining navlar kesimida har xil darajada o‘zgarishi aniqlandi. Transpiratsiya jadalligi o‘rganilgan soya navlarida sho‘rlanmagan tuproq sharoitida o‘stirilgan navlarga nisbatan o‘rtacha va o‘rtacha-kuchli sho‘rlangan sharoitda yetishtirilgan navlarga qaraganda yuqori bo‘ldi. Tuproq sho‘rlanish darajasining kamayishi bilan transpiratsiya orqali suvning sarflanishi oshishi qayd etildi(1-jadval).

1-jadval

Soya navlarining gullash bosqichidagi suv almashinuv ko‘rsatkichlari

t/r	Navlar	Sho‘rlanish darajasi	T.J. mg/m ² soat	U.S.M. %	K.S.T. %	H.T.D. mkm	T.O.B. atm
1	Nafis	1	149±0,9	77,0±0,7	13,1±1,2	0,242±0,005	11,4±0,5
		2	142±1,3	76,2±0,8	14,0±1,4	0,217±0,002	11,9±0,3
		3	137±1,0	75,2±0,5	14,9±1,6	0,191±0,001	12,6±0,4
2	Oyjamol	1	143±1,6	78,4±0,7	12,3±1,3	0,281±0,004	12,7±0,6
		2	124±1,3	77,6±0,9	12,9±1,6	0,263±0,002	13,6±0,4
		3	113±1,1	76,5±0,7	13,8±1,8	0,236±0,001	14,3±0,7
3	Sloviya	1	147±1,0	77,3±0,7	12,4±1,6	0,252±0,003	12,2±0,8
		2	141±1,4	77,0±0,8	13,0±1,5	0,224±0,004	12,6±0,6
		3	135±1,2	75,6±0,8	13,8±1,4	0,203±0,002	13,6±0,9
4	Vestochka	1	156±1,4	76,5±0,4	14,2±0,8	0,209±0,003	11,0±0,4
		2	151±1,8	75,6±0,7	15,0±0,5	0,183±0,004	11,7±0,5
		3	146±1,4	74,9±0,8	16,2±1,2	0,156±0,002	12,5±0,6
5	Viktoriya	1	166±2,0	75,5±0,6	15,2±1,3	0,189±0,004	10,8±0,5
		2	161±1,7	74,8±0,4	16,6±1,6	0,163±0,001	11,4±0,8
		3	158±1,8	74,2±0,5	17,7±1,4	0,138±0,002	12,0±0,5

Eslatma:1- nazorat- sho‘rlanmagan; 2- o‘rtacha; 3- o‘rtacha- kuchli sho‘rlanish.

T.J.- transpiratsiya jadalligi; U.S.M.- umumiy suv miqdori; K.S.T.- kunduzgi suv tanqisligi; H.T.D.- hujayralarning turgotsentlik darajasi; T.O.B- to‘qimalarining osmotik bosimi.

Tuproqdagi tuz miqdorining oshishi esa o‘simliklarda transpiratsiya jadalligining sezilarli pasayishi bilan bog‘liq bo‘ldi Rivojlanish fazalarida ko‘ra, transpiratsiya g‘unchalashdan generativ organlarning shakllanish davriga qarab

oshib borib, bunda yalpi gullash davrida ushbu ko'rsatkich maksimal darajada bo'lishi qayd etildi. Olingan ma'lumotlarga qaraganda, o'rganilgan soya navlarining transpiratsiya jadalligi tuproqning sho'rlanish darajasi, rivojlanish fazalari va havo haroratidan tashqari navlarning biologik xususiyatlariga ham bog'liq holda o'zgarishi kuzatildi. Olib borilgan tadqiqotlarda aniqlanishicha, soya navlari barglaridagi transpiratsiya jadalligi asosan, haroratning oshishiga, navlarning biologik hususiyatiga, kunning vaqtiga va tuproqning sho'rlanish darajasiga bevosita bog'liq bo'lib, sho'rlanmagan tuproq muhitidagiga nisbatan o'rtacha va o'rtacha-kuchli sho'rlangan tuproqlar sharoitida navlar kesimida mos ravishda Nafis navida 4-8, Oyjamol navida 11-19, Sloviya navida 5-9, Vestochka navida 4-7 % ga yuqoriligi aniqlandi, Viktoriya navida esa bu ko'rsatkich 3-6 foizga yuqori bo'lishi qayd etildi. Hujayralarning turgotsentlik darajasi o'simliklarning suv almashinuv jarayonida muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Hujayralarning turgotsentlik darajasi bo'yicha olingan ma'lumotlarga ko'ra eng yuqori qiymatlar Oyjamol, Sloviya va Nafis navlarida kuzatildi va ayni paytda tajriba variantlarida past natijalar Vestochka va Viktoriya navlarida aniqlandi.

Muhitda sho'rlanish darajasining oshib borishi bilan barcha navlarda turgotsentlik darajasi pasayishi va sho'rlanmagan, ya'ni nazorat variantlaridagi barcha navlarda yuqori ko'rsatkich aniqlandi. Barg to'qimalarining osmotik bosimi o'rganilganda soya navlarining sho'rlanmagan va o'rtacha-kuchli sho'rlangan tuproq sharoitda o'stirilgan navlarga nisbatan o'rtacha sho'rlangan tuproq sharoitiga yetishtirilayotgan navlarda biroz past ko'rsatkich qayd etildi. Bunda o'rtacha-kuchli sho'rlangan tuproqlar sharoitdagi o'simliklar oraliq o'rinni egalladi. Rivojlanish fazalarida ko'ra g'unchalashdan generativ organlarning shakllanish davriga qarab oshib borib, bunda dukkaklash davrida ushbu ko'rsatkich maksimal darajada bo'lishi qayd etildi. Olingan ma'lumotlarga qaraganda, o'rganilgan soya navlari barg to'qimalarining osmotik bosimi tuproqning sho'rlanish darajasiga bevosita bog'liqligi aniqlandi.

Tajribalar davomida har xil darajada sho'rlangan tuproqlar sharoitida soya navlarining gullash bosqichidagi chidamlilik darajasini xarakterlaydigan, hujayra shirasining quyuqlik va protoplazmaning qovushqoqlik darajasi, bog'langan suv miqdori va qoldiq suv tanqisligi kabi ko'rsatkichlar ham aniqlandi.

Hujayra shirasining quyuqlik darajasi o'simliklarning hayotiy jarayonlarida asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Hujayra shirasining quyuqlik qiymati tuproq sho'rlanish darajalari va navlarning biologik xususiyatlariga ko'ra har xil bo'lishi aniqlandi. Hujayra shirasining quyuqlik darajasi Oyjamol va Sloviya navida eng yuqori qiymatga ega bo'ldi. Eng past natijalar esa Vestochka va Viktoriya navlarida kuzatildi va oraliq o'rinni Nafis navi egalladi. Protoplazmaning qovushqoqlik darajasi o'simliklarning o'sishi va rivojlanishi jarayonida chidamlilikni belgilaydigan asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. O'simliklarning noqulay omillar ta'siriga chidamliligini aniqlashda ushbu ko'rsatkich qiymati suv almashinuv jarayonlari bilan bog'liq. Tajribalar davomida sho'rlanmagan, o'rtacha sho'rlangan hamda o'rtacha-kuchli sho'rlangan sharoitda soya navlari protoplazmasining qovushqoqlik darajasi aniqlandi (2-jadval).

Soya navlarining gullash bosqichidagi chidamlilik ko'rsatkichlari

t/r	Navlar	Sho'rlanish darajasi	H.Sh.Q.D. %	P.Q.D. %	B.S.M. %	Q.S.T. %
1	Nafis	1	11,3±0,05	39,8±0,7	22,9±0,5	2,03±1,4
		2	11,9±0,04	42,6±0,6	24,6±0,3	2,67±1,3
		3	12,4±0,07	49,0±0,5	25,5±0,1	3,13±0,6
2	Oyjamol	1	12,3±0,06	45,1±0,9	25,6±0,7	1,73±1,8
		2	12,8±0,04	47,8±0,3	27,2±0,8	2,13±1,5
		3	13,4±0,05	54,2±0,8	29,4±0,6	2,50±0,4
3	Sloviya	1	11,7±0,07	40,4±0,5	23,6±0,7	1,85±1,6
		2	12,9±0,08	43,0±0,7	25,4±0,8	2,31±1,8
		3	13,6±0,04	51,3±0,9	28,8±0,4	2,85±1,7
4	Vestochka	1	11,0±0,06	37,2±0,6	22,4±0,6	2,38±0,9
		2	12,3±0,05	40,4±0,6	23,7±0,7	2,85±1,8
		3	12,8±0,07	44,6±0,6	25,2±0,9	3,36±1,5
5	Viktoriya	1	9,9±0,09	34,8±0,6	22,1±0,5	3,71±1,8
		2	10,4±0,06	38,0±0,6	23,8±0,6	4,05±1,2
		3	11,9±0,07	41,3±0,6	25,0±0,7	4,53±1,4

Eslatma: 1- nazorat- sho'rlanmagan; 2- o'rtacha; 3- o'rtacha- kuchli sho'rlanish.

H.Sh.Q.D.-hujayra shirasining quyuqlik darajasi; P.Q.D.- protoplazmaning qovushqoqlik darajasi; B.S.M.- bog'langan suv miqdori; Q.S.T. -qoldiq suv tanqisligi.

Soya navlarining gullash bosqichidagi chidamlilik ko'rsatkichlarini xarakterlaydigan asosiy ko'rsatkichlardan biri bog'langan suv miqdori hisoblanadi. O'simliklarda bog'langan suv miqdorining oshishi, o'simliklarning noqulay omillar ta'siriga chidamlilik darajasini belgilaydi. Tajribalar davomida sho'rlanmagan va har xil darajada sho'rlangan tuproq sharoitlarida barglardagi bog'langan suv miqdorini aniqlandi. Olingan ma'lumotlarga qaraganda, ushbu ko'rsatkichning qiymati tuproq sho'rlanish darajalariga bog'liq holda xar xil bo'lishi kuzatildi. Jumladan, bog'langan suv miqdori tajriba variantlarida boshqa navlarga qaraganda Oyjamol va Sloviya navlarida ancha yuqori qiymatga ega bo'ldi. Nafis navida ham shunga yaqin ko'rsatkichlar qayd etildi. Vestochka va Viktoriya navlarida bog'langan suv miqdorining gullash fazasida kamayishi tajribalar davomida aniqlandi.

O'simliklarda qoldiq suv tanqisligining qiymati tuproq sho'rlanishiga va boshqa noqulay omillarga chidamlilik darajasini xarakterlaydigan asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Barcha o'rganilgan navlarda barglardagi qoldiq suv tanqisligi qiymati nazoratga qaraganda tajriba variantlarida yuqori bo'ldi. Sho'rlanish darajasining oshib borishi bilan qoldiq suv tanqisligi ham oshib borganligi kuzatildi. Navlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, eng yuqori qiymat Viktoriya navida aniqlandi. Shunga yaqin ko'rsatkichlar Vestochka va Nafis navlarida va past qiymatlar Oyjamol hamda Sloviya navlarida qayd etildi. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, ushbu ko'rsatkich qiymati navlarning biologik

xususiyatlariga hamda sho‘rlanish darajalariga bog‘liq holda har xil bo‘lishi kuzatildi.

Dissertatsiyaning “**Soya navlarining ayrim fiziologik xususiyatlariga sho‘rlanish ta’siri**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida albuminlar va xlorofill pigmentlari miqdori, nafas olish va fotosintez jadalligiga navlar kesimida sho‘r stressi ta’sirini o‘rganish bo‘yicha tajribalar davomida olingan ilmiy natijalar va bob bo‘yicha xulosalar keltirilgan.

Amalga oshirilgan tajribalarda aniqlanishicha, soya navlarining barglaridagi albuminlar miqdori rivojlanish fazalariga bog‘liq bo‘lib, o‘simlikning g‘unchalash fazasidan dukkaklash davriga qarab oshib bordi. Rivojlanishning turli fazalarida o‘zgarish diapazoni ko‘pchilik navlar uchun 16-31% ni tashkil etdi. Buni navlar kesimida ko‘radigan bo‘lsak, Nafis navida sho‘rlanmagan tuproq sharoitida o‘rganilgan soya navlarining barglaridagi albuminlar miqdori o‘rtacha 0,24-0,35 g/sm³ atrofida, o‘rtacha sho‘rlangan tuproq sharoitida 0,27-0,38 g/sm³ atrofida bo‘lsa, o‘rtacha- kuchli sho‘rlangan tuproqlarda esa bu ko‘rsatkich qiymati 0,29-0,41 g/sm³ atrofida ekanligi aniqlandi (3-jadval).

3-jadval




Albuminlar miqdoriga sho‘rlanish darajalari ta’siri, ho‘l og‘irlikka nisbatan g/sm³

t/r	Navlar	Sho‘rlanish darajasi	G‘unchalash	Gullash	Dukkaklash
			AM, g/sm ³	AM, g/sm ³	AM, g/sm ³
1	Nafis	sho‘rlanmagan	0,24±0,03	0,28±0,04	0,35±0,06
		o‘rtacha	0,27±0,05	0,32±0,03	0,38±0,08
		o‘rtacha- kuchli	0,29±0,07	0,35±0,05	0,41±0,04
2	Oyjamol	sho‘rlanmagan	0,28±0,04	0,37±0,07	0,41±0,07
		o‘rtacha	0,31±0,06	0,40±0,05	0,44±0,08
		o‘rtacha- kuchli	0,34±0,08	0,43±0,02	0,48±0,04
3	Sloviya	sho‘rlanmagan	0,25±0,05	0,33±0,03	0,38±0,07
		o‘rtacha	0,29±0,08	0,36±0,05	0,41±0,05
		o‘rtacha- kuchli	0,32±0,09	0,40±0,07	0,45±0,03
4	Vestochka	sho‘rlanmagan	0,20±0,04	0,24±0,05	0,27±0,07
		o‘rtacha	0,22±0,02	0,27±0,02	0,30±0,08
		o‘rtacha- kuchli	0,25±0,07	0,31±0,06	0,34±0,06
5	Viktoriya	sho‘rlanmagan	0,18±0,06	0,22±0,07	0,25±0,04
		o‘rtacha	0,21±0,08	0,25±0,03	0,29±0,07
		o‘rtacha- kuchli	0,23±0,09	0,28±0,05	0,32±0,08

Oyjamol navida albuminlar miqdori boshqa navlarga nisbatan biroz yuqori ekanligi qayd etilib, sho‘rlanmagan tuproq sharoitda 0,28-0,41 g/sm³ atrofida, o‘rtacha sho‘rlangan tuproq sharoitda 0,31-0,44 g/sm³ atrofida bo‘lsa, o‘rtacha- kuchli sho‘rlangan tuproq sharoitda esa bu ko‘rsatkich 0,34-0,48 g/sm³ atrofida bo‘ldi. Sloviya navida sho‘rlanmagan tuproq sharoitida o‘rganilgan soya navlarining barglaridagi albuminlar miqdori o‘rtacha 0,25-0,38 g/sm³, o‘rtacha sho‘rlangan tuproq sharoitida 0,29-0,41 g/sm³ bo‘lsa, o‘rtacha- kuchli sho‘rlangan

tuproq sharoitda esa bu ko‘rsatkich 0,32-0,45 g/sm³ atrofida ekanligi aniqlandi. Maksimal ko‘rsatkich Oyjamol navida qayd etildi. Bunda sho‘rlanmagan tuproq sharoitida turli fazalarda o‘rtacha 0,35 g/sm³, o‘rtacha sho‘rlangan tuproq sharoitida 0,38 g/sm³, o‘rtacha- kuchli sho‘rlangan tuproq sharoitida esa 0,41 g/sm³ darajasida qayd etildi. Ushbu navga yaqin ko‘rsatkichlar Sloviya navida aniqlangan bo‘lib, unda, sho‘rlanmagan tuproq sharoitida turli fazalarda o‘rtacha 0,32 g/sm³, o‘rtacha sho‘rlangan tuproq sharoitida 0,35 g/sm³, o‘rtacha- kuchli sho‘rlangan tuproq sharoitida esa 0,39 g/sm³ ni tashkil etdi.

O‘simliklarning o‘sishi va rivojlanish davrida nafas olish jadalligi noqulay omil ta‘siri va o‘simliklarning rivojlanish fazalariga bog‘liq bo‘ldi(1-rasm).






1-rasm. Nafas olish jadalligiga sho‘rlanish darajalari ta‘siri

O‘rganilgan barcha navlarning rivojlanish fazalariga ko‘ra, nafas olish jadalligi o‘zgaruvchan bo‘lib, bunda barglarning maksimal nafas olish faolligi

dukkaklash davrida qayd etildi. Izlanishlar natijasiga ko'ra, o'simliklarning hayoti davomida nafas olish jadalligi tashqi omillar, jumladan tuproqning sho'rlanish darajasi ta'sirida o'zgarishi aniqlandi. Bunda tuproqda sho'rlanish darajasining oshishi bilan nafas olish jadalligi ham shunga mos ravishda o'rganilgan barcha navlarda oshib borishi qayd etildi.

Dissertatsiyaning “**Soya navlarining mahsuldorlik darajasiga sho'rlanish ta'siri**” deb nomlangan beshinchi bobida navlarning o'sish jadalligi, navlar barg sathining kengayishi, navlarning fotosintez sof mahsuldorligi, navlarning hosil salmog'i navlar kesimida sho'r stressi ta'sirini o'rganish bo'yicha tajribalar davomida olingan ilmiy natijalar va bob bo'yicha xulosalar keltirilgan (2-rasm).



2-rasm. Fotosintez sof mahsuldorligiga sho'rlanish darajalari ta'siri

Tadqiqotlarda fotosintezning sof mahsuldorligi turli vegetatsiya davrlarida aniqlandi va fotosintez jarayonida quyosh nurlarining energiyasi o‘simlik barglari tomonidan qancha ko‘p o‘zlashtirilsa don, umumiy biomassa va boshqa turdagi hosil elementlari shuncha ko‘p bo‘lishi kuzatildi.

Soya navlarining turli muhit sharoitlarida fotosintez sof mahsuldorligi aniqlanganda, ushbu ko‘rsatkich navlarning biologik xususiyatlariga, vegetatsiya davrlariga va tuproqdagi sho‘rlanish darajalariga bog‘liq ekanligi qayd etildi.

